

Samarqand viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 21 143,6 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 20 499,5 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 575,8 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 68,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (2 219,7 mlrd so'm), Pastdarg'om (2 139,3 mlrd so'm), Payariq (1 848,2 mlrd so'm), Bulung'ur (1 762,3 mlrd so'm), Ishtixon (1 650,6 mlrd so'm) va Kattaqo'rg'on (1 648,9 mlrd so'm) tamanlarida qayd etildi.



Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (114,4 mlrd so'm), Samarqand shahri (144,5 mlrd so'm) va Qo'shrabot tumanini (879,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyati	21 143,6	104,6
Samarqand shahri.	144,5	112,8
Kattaqo'rg'on shahri	114,4	103,7
Oqdaryo tumani	1 330,6	105,8
Bulung'ur tumani	1 762,3	105,7
Jomboy tumani	1 373,2	107,3
Ishtixon tumani	1 650,6	103,6
Kattaqo'rg'on tumani	1 648,9	103,9
Qo'shrabot tumani	879,4	103,7
Narpay tumani	1 025,4	106,2
Payariq tumani	1 848,2	103,3
Pastdarg'om tumani	2 139,3	105,0
Paxtachi tumani	1 265,5	103,5
Samarqand tumani	1 049,1	105,4
Nurobod tumani	1 050,3	105,7
Urgut tumani	2 219,7	103,1
Toyloq tumani	1 642,2	103,2

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahar (112,8 %), Jomboy (107,3 %), Narpay (106,2 %), Oqdaryo (105,8 %) va Nurobod (105,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Urgut (103,1 %), Toyloq (103,2 %), Payariq (103,3 %), Ishtixon (103,6 %) va Paxtachi (103,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 21 143,6 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 6 192,8 mlrd so'mni (102,0 %), chorvachilik mahsulotlari 6 177,7 mlrd so'mni 106,5 %) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (2 190,9 mlrd so'm), Pastdarg'om (2 091,5 mlrd so'm), Payariq (1 829,7 mlrd so'm) va Bulung'ur (1 684,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (114,2 mlrd so'm), Samarqand shahri (131,3 mlrd so'm) va Qo'shrabot tumani (868,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahri (112,8 %), Jomboy (107,5 %), Narpay (106,6 %) va Oqdaryo (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Urgut (103,0 %), Payariq (103,2 %) va Toyloq (103,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 76,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,7 % fermer xo'jaliklariga, 2,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (1 614,0 mlrd so'm), Pastdarg'om (1 407,9 mlrd so'm), Payariq (1 320,3 mlrd so'm), Ishtixon (1 255,4 mlrd so'm) va Toyloq (1 206,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Samarqand shahri (101,9 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on shahri (110,2 mlrd so'm) va Narpay tumani (428,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahar (116,1 %), Samarqand (106,6 %), Nurobod (105,6 %), Oqdaryo (105,5 %) tumanlarida qayd etildi. Kattaqo'rg'on (100,8 %), Bulung'ur (102,4 %), Toyloq (102,5 %) va Pastdarg'om (102,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 157,2 ming tonna go'sht, 706,9 ming tonna sut, 596,3 mln dona tuxum, 1 359 tonna qirqib olingan jun, 23,3 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 2,9 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, sog'ib olingan sut – 102,5 % ni, olingan tuxum – 113,4 % ni, olingan qorako'l teri – 101,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 109,9 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 15,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 80,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 9,2 % fermer xo'jaliklari, 90,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	157,2	104,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,9	112,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	126,7	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,6	123,4
Sut, ming tonna	706,9	102,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	65,0	110,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	639,8	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,1	131,0
Tuxum, mln dona	596,3	113,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	241,4	127,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	261,4	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	93,5	122,3
Jun, tonna	1 359	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	144,0	103,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 103,0	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	112,0	116,7
Qorako'l teri, ming dona	23,3	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,6	106,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	13,4	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,3	100,6
Baliq, ming tonna	2,9	109,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,7	107,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,0	113,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	165,9



Shu bilan birga, olingan tuxumning 40,5 % fermer xo'jaliklariga, 43,8 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 10,6 % fermer xo'jaliklariga, 81,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 2,4 % fermer xo'jaliklariga, 57,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 39,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 92,5 % fermer xo'jaliklariga, 0,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht</i> <i>(tirik vaznda),</i> <i>tonna</i>	<i>Sut,</i> <i>tonna</i>	<i>Tuxum,</i> <i>ming dona</i>
Samarqand viloyati	157 174,0	706 930,0	596 338,0
Samarqand shahri	1 063,2	3 864,9	13 634,2
Kattaqo'rg'on shahri	1 414,8	3 127,0	447,6
Oqdaryo tumani	7 863,5	49 122,6	22 779,7
Bulung'ur tumani	9 020,1	46 200,9	38 801,1
Jomboy tumani	7 085,4	43 931,8	44 702,7
Ishtixon tumani	12 922,6	67 492,5	31 327,1
Kattaqo'rg'on tumani	10 372,9	68 880,2	20 077,1
Qo'shrabot tumani	9 461,9	37 473,6	20 448,8
Narpay tumani	3 552,9	33 311,0	11 485,7
Payariq tumani	13 776,5	68 625,2	20 397,4
Pastdarg'om tumani	15 815,4	67 715,5	34 324,7
Paxtachi tumani	8 856,2	39 545,1	14 991,8
Samarqand tumani	8 861,8	29 005,9	239 204,9
Nurobod tumani	11 165,7	25 259,8	25 694,8
Urgut tumani	17 185,5	78 278,6	27 953,8
Toyloq tumani	18 755,6	45 095,4	30 066,6

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bulung'ur (800,8 mlrd so'm), Pastdarg'om (683,6 mlrd so'm), Urgut (576,9 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (522,4 mlrd so'm) va Payariq (509,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (4,1 mlrd so'm), Samarqand shahri (29,4 mlrd so'm) va Qo'shrabot tumani (38,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Jomboy (113,2), Kattaqo'rg'on (110,2 %) tumanlari, Pastdarg'om (109,3 %), Bulung'ur (109,0 %) va Narpay (108,2 %) tumanlarida qayd etildi. Kattaqo'rg'on shahri (97,6 %), Samarqand (101,5 %), Paxtachi (101,6 %) va Urgut (102,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	340 801,0	104,1
Samarqand shahri.	3 711,7	103,1
Kattaqo'rg'on shahri	95,4	0,0
Oqdaryo tumani	17 833,7	102,3
Bulung'ur tumani	55 977,2	105,6
Jomboy tumani	27 527,3	105,7
Ishtixon tumani	20 422,2	100,5
Kattaqo'rg'on tumani	30 442,2	103,5
Qo'shrabot tumani	3 496,0	104,2
Narpay tumani	25 545,7	102,4
Payariq tumani	25 807,0	104,6
Pastdarg'om tumani	36 434,8	104,2
Paxtachi tumani	21 027,3	100,2
Samarqand tumani	15 760,9	103,9
Nurobod tumani	7 884,7	103,7
Urgut tumani	35 617,6	101,2
Toyloq tumani	13 217,3	122,1



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bulung'ur tumani (18,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Samarqand shahar (15,9 %), Narpay (15,7 %), Bulung'ur (13,5 %), Kattaqo'rg'on (10,6 %) va Pastdarg'om (9,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahar (0,5 %), Qo'shrabot (2,3 %) va Nurobod tumanida (4,3 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toyloq tumani (122,1%), Jomboy tumani (105,7 %), Bulung'ur tumani (105,6 %), Payariq tumani (104,6 %), Pastdarg'om (104,2 %), Qo'shrabot (104,2 %) tumanlari, Samarqand tumani (103,9 %) va Nurobod tumanida (103,7 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 679,9 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 1,8 % ga ko'p), sigirlar 716,4 ming boshga (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 619,3 ming boshga (3,0 % ga ko'p), parrandalar 13 711,2 ming boshga (6,2 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 679,9	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	107,6	109,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 565,7	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,6	121,2
shundan sigirlar	716,4	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	46,6	112,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	664,1	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7	124,0
Qo'y va echkilar	2 619,3	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	252,3	108,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 225,2	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	141,8	115,1
Otlar	29,6	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,7	112,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	23,3	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,6	120,3



Parrandalar	13 711,2	106,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5 740,2	127,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 793,3	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 177,7	83,4

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,9 % fermer xo'jaliklariga, 92,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,4 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,6 % fermer xo'jaliklariga, 85,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 41,9 % fermer xo'jaliklariga, 42,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,8 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025-yilning 1-iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Samarqand viloyati	1 679,9	2 619,3	13 711,2
Samarqand shahri	6,5	6,8	69,6
Kattaqo'rg'on shahri	9,6	9,4	47,9
Oqdaryo tumani	89,1	49,0	799,1
Bulung'ur tumani	113,3	153,7	793,7
Jomboy tumani	118,1	153,3	1 363,8
Ishtixon tumani	139,1	103,4	875,8
Kattaqo'rg'on tumani	145,0	171,1	813,0
Qo'shrabot tumani	111,4	423,0	624,4
Narpay tumani	105,3	79,9	368,4
Payariq tumani	114,6	116,8	553,3
Pastdarg'om tumani	195,5	182,3	853,0
Paxtachi tumani	102,1	208,4	327,9
Samarqand tumani	53,5	163,7	3 227,0
Nurobod tumani	84,0	627,8	503,8
Urgut tumani	192,5	118,5	663,1
Toyloq tumani	100,4	52,1	1 827,2

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun etishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Z. Ergashev
66 235-22-01 (3111)

Manzil:
Samarqand shahar Ulug'
Tursunov ko'chasi 82-uy
